



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

ERON MANBALARI ASOSIDA XVI–XIX ASRLARDA XIVA XONLIGI AHOLISI VA HARBIY-SIYOSIY TUZILMASI

Sapayeva Yulduz Xaydarovna

Urganch davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada XVI–XIX asrlarga oid Eron tarixiy manbalari hamda elchilik hujjatlari asosida Xiva xonligining harbiy tuzilmasi, aholining etnik tarkibi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tahlil qilinadi. Tadqiqotda xonlik qoʻshinining tarkibi, turkman qabilalarining harbiy-siyosiy hayotdagi oʻrni, davlat daromad manbalari, diplomatik aloqalar hamda kundalik turmush tarziga oid maʼlumotlar yoritilgan. Shuningdek, Eron mualliflari qarashlari orqali Xiva xonligining ichki va tashqi siyosiy vaziyati baholanadi.

Kalit soʻzlar: Xiva xonligi, Eron manbalari, turkman qabilalari, harbiy tuzilma, etnik tarkib, qozoqlar, qoraqalpoqlar, boj va xiroj, diplomatik aloqalar, ijtimoiy hayot.

НАСЕЛЕНИЕ И ВОЕННО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА ХИВИНСКОГО ХАНСТВА XVI–XIX ВЕКОВ НА ОСНОВЕ ИРАНСКИХ ИСТОЧНИКОВ

Сапаева Юлдуз Хайдаровна

Ургенчский государственный университет, независимый исследователь

Аннотация

В данной статье на основе иранских исторических источников и дипломатических документов XVI–XIX веков анализируются военная структура Хивинского ханства, этнический состав населения и его социально-экономическая жизнь. В исследовании освещаются состав войска ханства, роль туркменских племён в военно-политической жизни, источники государственных доходов, дипломатические связи, а также особенности повседневного быта. Кроме того, на основе взглядов иранских авторов даётся оценка внутренней и внешней политической ситуации Хивинского ханства.

Ключевые слова: Хивинское ханство, иранские источники, туркменские племена, военная структура, этнический состав, казахи, каракалпаки, налоги и подати, дипломатические связи, социальная жизнь.

POPULATION AND MILITARY-POLITICAL STRUCTURE OF THE KHIVA KHANATE IN THE 16TH–19TH CENTURIES BASED ON IRANIAN SOURCES

Sapayeva Yulduz Khaydarovna

Urgench State University, Independent Researcher

Abstract

This article analyzes the military structure, ethnic composition, and socio-economic life of the Khiva Khanate based on Iranian historical sources and diplomatic documents from the 16th to 19th centuries. The study highlights the composition of the khanate's army, the role of Turkmen tribes in military and political life, sources of state revenue, diplomatic relations, and aspects of everyday life. In addition, the internal and external political situation of the Khiva Khanate is evaluated through the perspectives of Iranian authors.

Keywords: Khiva Khanate, Iranian sources, Turkmen tribes, military structure, ethnic composition, Kazakhs, Karakalpaks, taxes and duties, diplomatic relations, social life.

XVI–XIX asrlar Markaziy Osiyo tarixida siyosiy beqarorlik, davlatlararo raqobat va murakkab etnik jarayonlar bilan xarakterlanadi. Ushbu davrda Xiva xonligi mintaqaning muhim siyosiy markazlaridan biri sifatida shakllanib, uning ichki tuzilmasi va tashqi aloqalari turli manbalarda oʻz aksini topgan. Ayniqsa, Eron tarixiy asarlari va elchilik hujjatlari Xiva xonligi hayotini oʻrganishda muhim manba hisoblanadi. Bu manbalarda xonlikning harbiy salohiyati, etnik tarkibi, iqtisodiy hayoti va diplomatik munosabatlari haqida batafsil maʼlumotlar uchraydi. Mazkur maqolada ana shu manbalar asosida Xiva xonligining harbiy tizimi, aholining ijtimoiy tuzilmasi hamda siyosiy hayotidagi asosiy jihatlar tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tarixiylik va xolislik tamoyillariga asoslangan holda quyidagi metodlardan foydalanildi: tarixiy-tahliliy metod — Eron manbalaridagi ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish; qiyosiy metod — turli manbalardagi ma'lumotlarni o'zaro solishtirish; manbashunoslik yondashuvi — elchilik hujjatlari va tarixiy asarlarning ishonchlilik darajasini aniqlash; tizimli yondashuv — Xiva xonligi jamiyatini kompleks tarzda o'rganish. Ushbu metodlar orqali Xiva xonligining harbiy, ijtimoiy va iqtisodiy tuzilmasi chuqur tahlil qilindi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xiva xonligi tarixini o'rganishda fors tilidagi manbalar muhim o'rin tutadi. Ushbu manbalarda xonlik hududi, aholisi va siyosiy hayoti haqida keng ma'lumotlar berilgan. Eron mualliflari, ayniqsa, Qojarlar davriga oid tarixiy asarlarda Xiva xonligini ko'pincha Xuroson bilan bog'liq holda tasvirlaydilar. Bu asarlarda xonlikning harbiy kuchlari, turkman qabilalarining o'рни hamda davlat ichidagi siyosiy muvozanat masalalari keng yoritilgan.

Shuningdek, elchilik hisobotlari va harbiy xotiralar Xiva xonligining ichki tuzilmasi haqida muhim dalillarni beradi. Bu manbalarda qo'shin tarkibi, davlat boshqaruvi, soliqlar tizimi, savdo aloqalari va kundalik turmush tarzi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda ham ushbu manbalar asosida Xiva xonligining etnik tarkibi, ijtimoiy munosabatlari va tashqi siyosati qayta tahlil qilinmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xiva xonligi harbiy kuchlari asosan o'zbeklar, qozoqlar va boshqa voha aholisi vakillaridan tuzilgan saroy navkarlaridan iborat bo'lib, ularning umumiy soni taxminan sakkiz ming nafarga yetgan. Ushbu qo'shin tarkibida tartibli va markazlashgan harbiy tuzilma kuchli bo'lmagan, turkman qabilalarida bo'lgani kabi mustaqil yirik lashkar mavjud emas edi. Xiva qo'shinlari tarkibida o'n ikki dona to'p bo'lib, ulardan oltitasi otlar yordamida harakatlantiriladigan dala artilleriyasi hisoblangan. To'plarni harakatlantirish qadimgi Eron harbiy an'analariga o'xshash tarzda, maxsus harbiy park yoki doimiy ta'minot tizimisiz amalga oshirilgan. Harbiy yurishlar chog'ida to'plarning o'q-dorilari hamda snaryadlari alohida aravalarda tashilgan [1; 70-b.].

Xiva harbiy tuzilmasida ofitser va mansabdorlar soni taxminan ming kishini tashkil etgan. Qo'shin tarkibidagi navkarlarning aksariyati professional harbiylar emas, balki doimiy kasb-hunar egasi bo'lmagan kishilardan iborat bo'lgan. Umumiy o'n ming kishilik harbiy kuchdan nisbatan tartibli va intizomli ikki otlilik bo'linmani ajratib ko'rsatish mumkin edi. Bu bo'linmalar "Turkiston" nomi bilan mashhur bo'lib, ularning shakllanishida turkmanlarning ta'siri sezilarli bo'lgan.

Turkman qabilalari Xiva xonligi siyosiy-harbiy hayotida muhim rol o'ynagan. Ular o'zbeklarni asosan ikki omil — diniy-mazhabiy yaqinlik hamda qul savdosi manfaatlari tufayli qo'llab-quvvatlagan. Agar turkmanlar asirlarni sotish uchun Xiva va Buxorodan tashqari boshqa bozorlarga ega bo'lganida, ular hatto Xiva va Buxoro aholisi vakillarini ham asir qilib sotishlari mumkin edi. Ayrim hollarda turkman qabilalari o'zbek hukmdorlariga qarshi chiqib, ulardan ayrimlarini o'ldirganligi ham qayd etiladi. Shu bois Xiva davlatining siyosiy barqarorligi ko'p jihatdan turkman qabilalarining munosabatiga bog'liq bo'lgan.

Turkmanlarning ayrim oqsoqollari Eron davlatiga yaqinlashish istagini ham bildirgan. Ularning fikricha, agar Eron hukumati qul savdosini rasman joriy etsa, bir necha yil ichida unga qarshi turgan turkman guruhlarini ham o'zlari qo'lga olib, Eron hududlariga olib borib sotish mumkin bo'lgan bo'lardi. Shu bilan birga, siyosiy vaziyat haqida mulohaza yuritilib, Rossiya davlati Jayhun bo'ylab Turkistonni bosib olish niyatida, inglizlar esa Afg'oniston yo'li orqali bu hududga kirishga urinayotgani ta'kidlanadi. Bu fikrlar mintaqa ustidan yirik davlatlar o'rtasidagi geosiyosiy raqobat mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Xiva xonligida to'rtta asosiy etnik guruh — o'zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar va turkmanlar yashagan. Turkmanlar esa, o'z navbatida, yovmut, yormali, qoradoshli, o'lali, ko'klan kabi bir necha qabilalarga bo'lingan. Xonlik hududida qirq-ellik ming atrofida turkman oilasi istiqomat qilgan. Yovmut qabilasidan tashqari ko'pchilik turkman guruhlari ma'lum davrlarda Eron hududidagi Ko'chan va Darjaz hukmdorlariga qaram bo'lgan.

Yovmut turkmanlari soni yigirma ming nafarga yaqin deb ko'rsatiladi [2; 312–315-b.]. Ular Oллоhqulixon va Muhammad Rahimxon davrida Gurgon, Darjaz, Obivard va Niso atroflaridan ko'chirilib, Xiva hududining cho'l etaklariga joylashtirilgan. Biroq keyinchalik yuzaga kelgan siyosiy beqarorliklar hamda Muhammad Aminxonning halok bo'lishidan so'ng bu qabilalar yana o'z eski maskanlariga qaytib ketgan.

Chovdur qabilasi esa dastlab Hoji Tarxon (Astraxan) atroflarida yashagan. Keyinchalik ular ham

Xiva hukmdorlari tomonidan ko‘chirilib, Xo‘jayli va Qo‘ng‘irot atrofida joylashtirilgan. Umuman, qozoq, qoraqalpoq, chovdur va boshqa turkman guruhlari birgalikda ikki yuz ming kishiga yaqin bo‘lgan. Shundan yuz yigirma ming nafari qozoqlar, o‘ttiz ming nafari qoraqalpoqlar hisoblangan. Keyinchalik siyosiy notinchlik davrida qozoq va qoraqalpoq hududlarining katta qismi Rossiya tasarrufiga o‘tgan. Xiva hukmdorlariga tobe bo‘lib qolgan qoraqalpoq aholisi esa taxminan o‘n ming oila atrofida bo‘lgan.

Muhammad Alixon G‘afur Tuyamo‘yin atrofida yashovchi turkmanlar bilan bog‘liq rivoyatda shunday deydi: “Tuyamo‘yin Xivaning qishloqlaridan biri bo‘lib, besh-oltita dehqoni bor, dehqonchilik mahsuloti yo‘q hudud sanalgan. Xivada yo‘l-yo‘lakay tosh uyumlaridan iborat bir nechta tepaliklar ko‘zga tashlanadi. Mahalliy turkman urug‘lari e‘tiqodiga ko‘ra, hazrati Asadullohil G‘olib Ali ibn Abu Tolib shu yerlarga kelgan ekan va mazkur joydan o‘tib ketayotganlarida namozini o‘qish oldidan dehqonlarga “Duldulimning to‘rvasiga ozgina arpa solib qo‘yinglar”, deb buyuradi [3]. Namozini tugatib qarasa, to‘rvasiga yem emas, mayda-mayda tosh solib qo‘yibdilar. Hazrat shunda dehqonlarni duoyi bad qiladi va ularning uyulib turgan g‘alla uyumlarining barchasi tosh uyumlarga aylanadi. Aytishlaricha, bu tosh tepaliklar ana shu tosh uyumlari ekan”.

Eron mualliflarining keltirgan ma‘lumotlariga ko‘ra, Xiva xonining tashqi ko‘rinishidagi oddiylik alohida ta‘kidlanadi. Xon kiyim-kechak jihatidan boshqa zodagonlardan keskin farq qilmagan, faqat bosh kiyimidagi qimmatbaho jig‘a uning hukmdorlik ramzi bo‘lgan. Jig‘aning bahosi ellik-oltmish tuman atrofida deb ko‘rsatiladi. Xon otga minganida ot dumiga kumush bezaklar taqilgan, yo‘lga chiqish marosimida esa surnay va karnaylar chalingan.

Xon saroyidagi qiziqarli odatlardan biri xonning o‘zi chilim chekmaganligi, balki maxsus xizmatkor — mahram orqali chilim tutunini qabul qilganidir. Mahram chilimni tortib, tutunni chiqarmasdan xon huzuriga kelgan va chilim nayini xonga tutgan. So‘ngra tutun to‘liq xon tomonidan nafas bilan chiqarilgan. Xon qabul marosimlarini devonxonada o‘tkazgan va unga kirish tartibi nisbatan erkin bo‘lgan. Har qanday shaxs salom berish uchun kirishi mumkin edi. Yuqori martabali amaldorlar — mehtar, to‘ra va boshqa zodagonlarga o‘tirishga ruxsat berilgan, qolganlar esa salom berib, fотиha o‘qib qaytib chiqishgan.

Xonga keltirilgan hadyalar ham oddiyliги bilan diqqatlidir, xususan, meva, qo‘zichoq yoki boshqa mahsulotlar ham bemalol qabul qilingan. Bu holat Xiva xonligi saroyida rasmiy marosimlar bilan birga oddiy xalqona unsurlar ham mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi [3; 220-b.].

Xiva xonligining muhim daromad manbalaridan biri boj va xiroj yig‘imlari hisoblangan. Savdosotiqdan olinadigan bojar ichida, ayniqsa, chit gazlamalar savdosidan undiriladigan qirqdan bir ulush alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Yo‘llar ochiq va xavfsiz bo‘lib, karvonlar muntazam qatnab turgan yillarda ushbu bojdan yigirma besh ming tilla miqdorida daromad olingan.

Qul yoki cho‘ri savdosi ham soliq solinadigan faoliyat turiga kirgan bo‘lib, har bir sotilgan qul uchun bir tilla boj undirilgan. Bundan tashqari, chilim tamakisidan ham alohida boj olinib, bu manbadan yiliga qariyb o‘ttiz ming tilla daromad tushgan. Umumiy hisobda viloyatlardan keladigan daromad davlat xazinasiga ikki yuz ellik ming tilla miqdorida foyda keltirgan. Xonning qo‘shimcha daromadlari esa “in‘om” deb ataluvchi sovg‘a-salomlar, ya‘ni valiahd, a‘yonlar va boshqa nufuzli shaxslar tomonidan taqdim etilgan hadyalar bilan ham to‘ldirib borilgan.

Manbada Xorazm aholisi turmush tarziga oid ayrim ijtimoiy odatlar ham tilga olinadi. Jumladan, chilim va nos chekish keng tarqalgan bo‘lib, oddiy fuqarodan tortib xonlargacha ushbu odatga amal qilgan. Biroq diniy-me‘yoriy nazoratni kuchaytirish maqsadida bir mulloni viloyat muhtasibi etib tayinlab, unga “rais” unvoni berilgan. Mazkur shaxs shariat talablariga rioya etilishini, shuningdek, bozorlarda narxnavoning belgilangan me‘yorlardan oshib ketmasligini nazorat qilgan.

Agar kimning qo‘lida chilim ko‘rsa, uni bid‘at va molni isrof qilish deb baholab, ogohlantirish bergan. Rais chaqirilmagan joyga bormagan, biroq zarurat tug‘ilganda biror uyga kirib, chilimni ko‘rsa, egasiga chora qo‘llagan. Hatto rais xon majlisiga kirgan paytda ham chilim keltirish taqiqlangan. Xonning o‘zi ham uning huzurida chilim chekishga jur‘at etmagan. Bu esa mazkur lavozimning diniy-axloqiy nazoratdagi muhim rolini ko‘rsatadi [4; 98-b.].

Xiva xonlari qo‘shni davlatlar sanalgan Buxoro, Qo‘qon, Usmonli turklar davlati hamda Eron bilan turlicha siyosiy va diplomatik munosabatlar olib borganlar. Ayniqsa, Usmonli sultonining xalifalik maqomi Xiva hukmdorlari tomonidan e‘tirof etilgan bo‘lib, masjidlarda juma namozlari vaqtida minbarlardan o‘qiladigan duolarda Rum sultoni xalifatulloh nomi tilga olingan. Bu holat Xiva xonligining musulmon dunyosidagi diniy-siyosiy markaz sifatida Usmonli davlatiga ramziy sodiqligini ko‘rsatadi.

Ilgari Xiva xonlari Usmonli davlatidan oliy martabali unvon yoki mansab olishni katta faxr deb

bilganlar. Bunday unvon hukmdor nufuzining oshishiga xizmat qilgan. Keyingi davrlarda bu an'ana zaiflashgan bo'lsa-da, Usmonli davlati bilan do'stona aloqalar va ramziy sadoqat saqlanib qolgan.

Shuningdek, ingliz davlati ham Xiva xonligi bilan aloqalar o'rnatishga harakat qilgan. Xiva hukmdorlari o'z manfaatlarini ko'zlab, inglizlar bilan do'stona siyosat yuritganlar. Ba'zan ingliz elchilari Xivaga kelib, ruslarning dengiz bo'ylarida qal'alar qurishi masalasi yuzasidan maslahatlar berganlari qayd etiladi. Ayrim hollarda inglizlar harbiy texnika, jumladan, to'p va o'q-dori bilan ham yordam ko'rsatganlar. Xiva xonligidagi ayrim artilleriya qurollari ingliz muhandislari va ustalari tomonidan o'rnatilgani ham ta'kidlanadi.

Xiva hukmdorlari uchun eng katta tashqi xavf Eron davlati tomonidan yuzaga kelgan. Eron qo'shinlarining hujumlari Xiva, Buxoro hamda boshqa turkiy davlatlarni doimiy xavotirda tutgan. Hatto Marv turkmanlari qo'lga tushgan Eron to'plarini Buxoro hukmdorlari har birini besh ming tuman evaziga sotib olgani haqida ham ma'lumot beriladi.

Xiva xonligining ma'muriy tuzilmasi haqida to'xtaladigan bo'lsak, xon xizmatidagi eng mo'tabar shaxslar qatoriga inoq (valiahd), mehtar, qushbegi va devonbegi kirgan. Ulardan keyin rais, devon xodimlari, qozikalon, harbiy boshliqlar va mahalla mullalari kabi jami o'ttiz ikki nafar mansabdor shaxs mavjud bo'lgan. Bu amaldorlarni tayinlash, lavozimdan olish yoki yuqori martabaga ko'tarish xon vakolatiga kirgan. Faqat mahalla mullalari rais ixtiyorida tayinlangan.

Rasmiy hujjatlar muhr bilan tasdiqlangan bo'lib, muhr qo'yish huquqi ham qat'iy tartibga solingan. Yer-mulkka egalik, qarz bitimlari, nikoh hujjatlari va boshqa huquqiy masalalarda qozikalon muhim rol o'ynagan. Harbiy masalalar va baxtsiz hodisalarga oid hukmlar esa harbiy qozilar zimmasiga yuklatilgan.

Xorazm aholisining turmush tarzida ovqatlanish sodda bo'lib, to'y va ziyofatlarda ham ko'pincha bir turdagi taom bilan kifoyalanganlar. Odat bo'yicha dasturxoniga bir nechta non, oqqand (o'rus qand) qo'yganlar. Xorazmliklar qoidasida nondan bir bo'lak olib, tuzi tatib ko'rib, keyin fotiha o'qilgan. Dasturxonni yig'ishtirib, undagi non va o'rusqandlarni mehmonlarga tortiq qilganlar.

Ot va sigir go'shti keng iste'mol qilingan, qo'y go'shti esa nisbatan kam ishlatilgan. Yog' sifatida asosan zig'ir va paxta yog'i qo'llanilgan, xon va yirik amaldorlar esa dumba va kunjut yog'idan tayyorlangan taomlarni afzal ko'rganlar. Palov "qobuliy" deb atalgan bo'lib, xon va amaldorlar uni kamdan-kam iste'mol qilgan, ko'proq qaynatma sho'rvani ma'qul ko'rganlar.

Mazkur ma'lumotlarni Muhammad Alixon G'afur ham o'zining "Xorazm safari kundaliklari" asarida keltirganini ko'ramiz. Xususan, Xorazmliklar uyiga mehmon kelganida birinchi uning oldiga choy keltirilishi, dasturxon yozilib, dasturxoniga barcha yeguliklardan oldin non qo'yilishi haqida yozadi. Xorazmliklarning taomnomasi haqida gapirar ekan, kundalik ovqatlari asosan guruch qaynatmasi bo'lib, uni tovoqlarda dasturxoniga tortiq qilishlarini va yog'li ovqat tayyorlash uchun kunjut yog'idan keng foydalanishlarini keltiradi.

Taomlanib bo'lingach, dasturxon yig'iladi va qo'llarni yuvish uchun qumg'on bilan lagan keltiriladi. O'ziga to'q xonadonlarda bu ishlarni xizmatkorlar bajarganlar, ular xizmat ko'rsatayotganlarida oyog'idagi etiklarini chiqarmasdan gilam yoki paloslar ustiga bimalol chiqib yurganlar. Eng oxirida besh yoki olti bo'lak o'rus qand (oq qand) keltirilib, o'tirganlarga tarqatilgan va bir nechta likopchalarda kishmish, turshak, bodom mag'zidan tayyorlangan shirinlik tortiq qilingan.

To'y marosimlari ichida eng dabdabali marosim sifatida xatna to'yi alohida tilga olinadi. Bolani bezatib, otga mindirib, mahalla bo'ylab aylantirish odat bo'lgan. Nikoh marosimida qozining ishtirokida ramziy suv marosimi o'tkazilgan. Qalin puli ko'pincha to'qqiz soni bilan bog'liq miqdorlarda belgilangan, masalan, ikki to'qqiz tilla yoki to'qqizta non kabi. Xon va a'yonlar qizlari uchun qalin miqdori hatto to'qson to'qqiz tillagacha yetgan.

Aza marosimlari ham o'ziga xos bo'lgan. Marhum uchun xayriya qilish odati keng tarqalgan. Marhumning qarindoshlari qilich dastasiga ro'mol bog'lab, pul qo'yish orqali mullolarga hadya berganlar va ular marhumning diniy majburiyatlari ado etilganini bildiruvchi oyatlar o'qiganlar [7; 112-b.].

Xorazm shaharlarida haftasiga ikki marta bozor o'tkazilgan. Aholi, jumladan, o'zbeklar doimiy ravishda mahsi kiyib yurishgan va hatto tahorat paytida ham uni yechmaganlar. Mahsi ustidan mas'h tortish amaliyoti keng qo'llangan. Sud hukmlari qat'iy chiqarilgan, har bir fuqaro xonga bevosita murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan. Xon muhim ishlarni shaxsan tekshirgan, shariatga oid masalalar esa qozilar tomonidan hal etilgan. Xon devonidan chiqadigan farmonlar qisqa, aniq va lo'nda shaklda rasmiylashtirilgan.

Qoraqalpoqlar Xiva xonligining shimoliy hududlarida yashovchi muhim etnik guruh sifatida tilga

olinadi. Ular asosan chorvachilik va qisman dehqonchilik bilan shug'ullangan bo'lib, xonlikka soliq to'lovchi aholi qatlamlaridan biri hisoblangan. Qozoq qabilalari esa ko'proq ko'chmanchi turmush tarzini saqlagan holda Xiva xonligi bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalarda bo'lgan. Ushbu guruhlar xonlik hududida mavsumiy ravishda ko'chib yuruvchi aholi sifatida tasvirlanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Eron tarixiy asarlarida Xiva xonligi aholisi til jihatidan ham turkiy unsur ustun bo'lgan jamiyat sifatida tavsiflanadi. O'zbek va turkman lahjalari keng qo'llangan bo'lsa-da, diplomatik yozishmalar va ayrim rasmiy muomala jarayonlarida fors tilining ham ishlatilgani qayd etiladi. Bu holat Xiva xonligining Eron va umumiy forsiy madaniy makon bilan aloqalari mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Eron mualliflari, shuningdek, Xorazm aholisining diniy jihatdan sunniy mazhabiga mansubligini, ammo turli qabila va guruhlar orasida mahalliy urf-odatlar kuchli saqlanib qolganini ham alohida ta'kidlaydilar.

Xiva xonligining etnik qiyofasi ham ko'p tarkibli va murakkab ijtimoiy-etnik tuzilishga ega bo'lgan hudud sifatida tasvirlanadi. Ushbu manbalarda Xorazm aholisi asosan o'zbeklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar hamda qisman forsiyazon guruhlaridan iborat ekani qayd etiladi. Eron mualliflari Xiva xonligining siyosiy hayotida yetakchi o'rinni o'zbek qabilalari, xususan, qo'ng'iroq urug'iga mansub hukmdorlar egallaganini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, turkman qabilalari xonlikning janubiy va g'arbiy hududlarida yarim mustaqil kuch sifatida faoliyat yuritgan, ular harbiy salohiyatga ega bo'lib, ayrim hollarda markaziy hokimiyatga bo'ysunmagan holda siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ismoil Mirpanjiy. *Kundalik kuzatishlar va hisoblar*. – Tehron: Nashr-i Amir Kabir, 1984. – B. 70.
2. Mirzo Muhammad Hasaxon E'timod us-Saltane. *Mir'ot ul-buldon*. – Tehron: Nashr-i Amir Kabir, 1984. – B. 312–315.
3. Rizoqulixon Hidayat. *Ravzat us-safo-yi Nosiriy*. – Tehron: Kitobxona-yi Xayyom, 1960. – J. 1. – B. 145–148.
4. Muhammad Taqiyxon Sipehr. *Nosix ut-tavorix*. – Tehron: Intishorot-i Asotir, 1998. – J. 3. – B. 220–225.
5. Abdulkarim Buxoriy. *Tarix-i Turkiston*. – Tehron: Bunyod-i Farhangi Eron, 1976. – B. 98–102.
6. Muhammad Yusuf Munir. *Tarix-i Navoiy Xuroson*. – Mashhad: Ostoni Quds Razaviy, 1988. – B. 167–172.
7. Fereydun Odamiyat. *Andeshahoi siyosiy dar davra-yi Qojariya*. – Tehron: Xorazmiy, 1976. – B. 112–118.